


Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-noyabr)


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8536,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 119,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 55,6 % ni tashkil etdi.



B–Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati 22,3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 17,0 % ga hamda tog'kon sanoatining 7,6 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 18,3 % ga pasayishi kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,2 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4742,4 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 55,6 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 163,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 1,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali 218,2 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,6 %), o'rta-quyi texnologiyali 1014,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 11,9 %), quyi texnologiyali 3346,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 39,2 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi
mahsulotlarning o'sish sur'ati**

2021- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 660,2 ming l. 100% spirti (2020- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan 54,9 % ga kamaygan), 50,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (23,6 %) ishlab chiqarilib kamayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar- noyabr	2021- yil yanvar- noyabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	65,8	50,2	-15,6
Aroq, ming l. 100% spirt	1465,2	660,2	-805
Sellyuloza, tonna 90%	1784,2	2063,9	279,7
Paxta tolasi, ming tonna	6,3	13,2	6,9
Paxta chigiti, ming tonna	10,6	20,7	10,1
Paxta tiviti (lint), ming tonna	0,5	2,0	1,5
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	28,7	20,9	-7,8
Etilen polimer qoplar, ming tonna	15,8	14,5	-1,3
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	13091,1	14090,3	999,2
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	130,7	136,9	6,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy
va spelta uni

50,2
ming tonna



Aroq

660,2
ming l. 100% spirt




Sellyuloza

2063,9
tonna 90%



Paxta chigiti

20,7
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

1,2
ming tonna



Paxta tolasi

13,2
ming tonna



Etilen polimerli qoplar

14,5
ming tonna



Issiqlik elektr
markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi

14090,3
mln.kVt/s



Bug‘ va issiq suv
(issiqlik energiyasi)

136,9
ming Gkal




Yirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqa

20,9
ming tonna

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3678,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (43,1 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 117,0 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	13091,1	14090,3	999,2
Issqlik energiyasi, ming gkal	130,7	136,9	6,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ulushini) tashkil etdi.



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,9 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3151,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 20,9 % ga o'sishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 36,9 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 2,5 % ni (2020- yil yanvar-noyabr oylarida 3,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 30,7 % ni, shuningdek, Guliston shahri 18,0 % ni hamda Mirzaobod tumani 8,9 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (120,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Sayxunobod tumanida (220,5 %) va Sardoba tumanida (206,1 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	3151,7	100,0	120,9
Guliston sh.	566,9	18,0	99,5
Shirin sh.	28,6	0,9	156,8
Yangiyer sh.	222,5	7,1	101,0
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	131,8	4,2	113,2
Guliston	220,7	7,0	188,4
Mirzaobod	281,8	8,9	140,3
Oqoltin	215,3	6,8	2,3 m
Sardoba	105,3	3,3	2,1 m
Sayxunobod	233,9	7,4	2,2 m
Sirdaryo	966,3	30,7	116,1
Xovos	178,6	5,7	137,9

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1553,5 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.




Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 18,2 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Sirdaryo tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 57,4 %), Sardoba (55,3 %), Guliston tumanlarida (51,6 %) hamda Guliston shahrida (21,3 %) kuzatildi.

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2021-yil yanvar- noyabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Sirdaryo viloyati	8536,2	119,3
Guliston sh.	933,7	96,4
Shirin sh.	3454,5	108,4
Yangiyer sh.	570,5	108,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	363,9	111,2
Guliston	299,5	123,1
Mirzaobod	312,3	107,6
Oqoltin	308,9	121,6
Sardoba	194,9	131,4
Sayxunobod	370,2	106,2
Sirdaryo	1543,0	109,6
Xovos	184,8	107,0

Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushni Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 40,5 %), Sirdaryo tumani (18,1 %), Guliston shahri (10,9 %), Yangiyer shahri (6,7 %), Boyovut tumani (4,3 %), Sayxunobod tumani (4,3 %), va Mirzaobod (3,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Guliston (3,5 %), Sardoba (2,3 %) hamda Xovos tumanlari (2,2 %)ga to'g'ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va
iste'mol mollari ishlab chiqarish**
(2021- yil yanvar-noyabr oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	9841,2	3633,5
Guliston sh.	10116,3	6141,4
Shirin sh.	181817,0	1 504,0
Yangiyer sh.	12790,0	4 990,8
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	2746,8	994,6
Guliston	4004,2	2 951,2
Mirzaobod	4120,2	3 717,4
Oqoltin	5795,0	4 039,4
Sardoba	2891,4	1 562,7
Sayxunobod	4685,7	2 960,8
Sirdaryo	11787,7	7 381,6
Xovos	1889,9	1 826,1

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da)




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab
chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi**
(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

	Mahsulot hajmi (mird. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	2711,4	31,8
Guliston sh.	465,1	49,8
Shirin sh.	25,5	0,7
Yangiyer sh.	279,7	49,0
tumanlar:		
Boyovut	328,5	90,3
Guliston	69,2	23,1
Mirzaobod	121,6	38,9
Oqoltin	290,7	94,1
Sardoba	192,4	98,7
Sayxunobod	123,7	33,4
Sirdaryo	716,9	46,5
Xovos	98,1	53,1

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3279,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,4 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushni Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Mirzaobod tumani (99,6 %), Boyovut tumani (90,5 %), Sayxunobod tumani (62,1 %), Xovos tumani (79,0 %) Guliston (64,7 %) hamda Yangiyer shaharlarida (53,6 %) kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sirdaryo tumani (52,2 %), Guliston tumani (48,6 %), Oqoltin tumani (58,8 %), hamda Shirin shahrida (0,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2183 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 538 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 24,6 %) Guliston shahriga, 360 tasi (16,5 %) Sirdaryo tumaniga, 194 tasi (8,9 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2021- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatda 446 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 56,7 foizi Guliston shahriga, Boyovut, Mirzaobod va Sirdaryo tumanlariga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (067) 236-86-23